



BOLALARНИ MAKTABGA TAYYORLASHГА DOIR YAN AMONS KOMENSKIYNING QARASHLARI.

Salimova Madina Anvarovna

Jizzax shaxar 19-DMTT direktori.

Annotatsiya: *Maktabgacha davr inson shaxsini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada Yan Amons Komenskiyning bolalarni maktabga tayyorlashga doir qarashlari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lif paradigmasi, ilm-fan, texnika, nazariy bilimlar, texnika va texnologiya, jamiyat ehtiyojlari.*

Annotation: *The preschool period is of great importance in the formation of the human personality. In this article, Y.A. Kamensky's views on preparing children for school were discussed.*

Keywords: *educational paradigm, science, technology, theoretical knowledge, engineering and technology, society needs.*

Maktabgacha ta'lif sifatini yangilash va yaxshilash, bolalarning ijodiy va kognitiv qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan maktabgacha ta'lifning yangi avlodini dasturiy va uslubiy ta'minotini joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Shuningdek maktabda tizimli ta'lifning yangi asr bosqichiga o'tishda maktabgacha ta'lif tashkilotlari bitiruvchilarining boshlang'ich qobiliyatlarini muvofiqlashtirish zarurati tug'ildi.

Zamonaviy maktabgacha ta'lif tashkilotida innovatsiyalarni tashkil etish va mazmunining dolzarbliги shubhali emas. Bugungi kunda ilm-fan, texnika va texnologiyaning rivojlanishi, jamiyat ehtiyojlarining o'zgarib borishi dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarida ta'lif paradigmاسini o'zgartirib, o'quv jarayonini nazariy bilimlar berishdan olingan bilimlarni amaliyatda qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qarab o'zgarmoqda. Maktabgacha davr inson shaxsini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega. Agar shaxsni har taraflama shakllantirishda aynan shu yoshdagi qulay sharoitlar qo'llanilmasa, rivojlanish to'xtab qolishi mumkin yoki chetlanishlarini bartaraf etish nihoyatda og'ir kechadi. Maktab hayotiga bolani kim tayyorlashi kerak? Bog'cha tarbiyachilari bolani maktabga tayyorlash butun bog'cha davrida amalga oshishi kerakligini tushunishadi va dastur talablariga binoan uni amalga oshirishadi. Lekin aynan maktabga borishdan avval ular tayyorgarlikka alohida diqqat-e'tiborini qaratishadi:

- 1) talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etishadi,



- 
- 2) bilimlarni bir sistemaga solishadi,
 - 3) qo'llaming mayda harakatini rivojlantirishadi va hokazo.

Y.A. Kamenskiy o'zining «Onalar maktabi» kitobining maktabga tayyorlash bobida yozishicha, barcha insonlar bajaradigan ishlar, ma'lum bir tayyorgarlikni talab qiladi. Ota-onalar shuni o'ylab, o'z bolalarini maktabga tayyorlashadi. Maktabga har tomonlama tayyorgarlikdan tashqari, Yan Amons Kamenskiy ota-onalar uchun quyidagi vazifalarni ko'rsatadi:

- 1. Bolalarda maktabga borganda, o'z tengdoshlari bilan o'qigan va o'ynaganda xursandchilik hissini tug'dirish.
- 2. Bolalarga maktabdagagi ta'llimning mohiyatini tushuntirish, ularni maktabdagagi faoliyat turlari bilan tanishtirish.
- 3. Bolalarda bo'lajak o'qituvchilarga nisbatan hurmat va ishonchni shakllantirish.

Hozirda ota-onalar bolalarni maktabga qanday tayyorlashmoqda. Ota-onalarning ko'pchiligi maktabda yaxshi o'qishning shartlaridan biri shaxsning umumiyligi rivojlanishi deb hisoblashadi. Ammo, bolaning aqliy rivojlanishi eng asosiysi deb bilishadi, shuning uchun mashg'ulotlarda bilim, nutq, tafakkur va xotirani rivojlantirishga harakat qiladilar. Keyingi o'ringa bolaning o'qish va yozish malakalarini rivojlantirishni qo'yishadi, yodlatishadi, suhbatlashishadi, birgalikda mantiqiy o'yinlar o'ynashadi. Gohida mehnat, sport, ashula yoki raqs bilan shug'ullanishadi.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodni har tomonlama yetuk, axloqli, odobli kishilar sifatida kamol toptirish muhim vazifadir. Tarbiyachining bolalar bilan mazmunli suhbatlar o'tkazishi, ularni g'aroyibotlar olamiga olib kirishi, faollik sari yetaklashi alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

- 1. Qodirova F.R. Bolalar bog'chasida she'riyat muhiti – bolalar nutqini rivojlantirishning zarur sharti /Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy va huquqiy tarbiyalash muammolari va echimi mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2004. 56-59 betlar.
- 2. Xasanova, G. (2021). Oliy ta'llim muassasalari pedagoglarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning mazmuni. Academic research in educational sciences, 2(1).



- 
3. Xasanova, G. I. Q. (2021). Bolaga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishda tarbiyachining kasbiy kompetentsiyasining axamiyati. Academic research in educational sciences, 2(9), 1051-1056.
 4. Xasanova, G. (2021). Bolaga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishda tarbiyachining kasbiy kompetentsiyasining axamiyati. Scienceweb academic papers collection.

